



HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research

(HSR-ICMAR) 2026

<https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference>

ABOUT THE KARAKALPAK TRANSLATION OF MUHAMMAD YUSUF'S POEMS

Eshboeva Matluba

Doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute

M38815291@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21177764>

Abstract: This thesis analyzes Muhammad Yusuf's translations into the Karakalpak language, as well as the achievements and shortcomings of the translators. Analyzing the work done in the field of translation from a linguistic point of view is one of the urgent tasks of today. This does not lose its importance for future translators to avoid mistakes and shortcomings.

Keywords: translation, translator, related languages, comparative method, literal translation.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARINING QORAQALPOQCHA TARJIMASI XUSUSIDA

Annotatsiya: Ushbu tezisdan Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalari xususida, tarjimonlarning yutuq va kamchiliklari borasida tahlil qilingan. Tarjima sohasi bo'yicha qilingan ishlarni til nuqtai nazaridan tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu esa kelgusi tarjimonlarning xato va kamchilikka yo'l qo'ymasligi uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjimon, yaqin tillar, qiyosiy usul, so'zma-so'z tarjima.

Kirish: Jahon tarjimashunosligiga nazar solsak, shu kungacha ko'pgina olimlar tomonidan tarjima nazariyasiga oid tadqiqotlar bajarilgan. Tarjima sohasi shunisi bilan ahamiyatli, u ikki xalqning nomoddiy boyligini bir-biri bilan uzviy bog'laydi, xalqlar o'rtasidagi ma'naviy aloqani yuksaltiradi. Qoraqalpoq xalq vakili, mohir tarjimon Bazarbay Seytayev ham ana shular jumlasidandir. Chunki u O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning she'rlaridan ko'pchiligini qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan. Bu mehnatlarining samarasidan namuna deya uning 2004-yilda nashr qilingan "Biz baxitli bolamiz" kitobini dalil sifatida keltirish mumkin. Bundan tashqari, shoir rafiqasi Nazira as-Salom bilan bo'lgan uchrashuvimizda tarjimon B.Seytayev tomonidan tarjima qilingan, ammo uning bevaqt vafot etib qolganligi bois nashr qilinmay qolgan tarjima she'rlarining qo'lyozma nusxasini olishga muvaffaq bo'ldik. Tarjimalarni til nuqtai nazaridan tahlil qilish shunisi bilan ahamiyatli, tarjimadagi barcha yutuq va kamchiliklar til orqali aniqlanadi. Tarjima asarlarni tahlil qilish ancha yillar ilgari boshlangan bo'lsa ham, bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Sababi tarjima qilinayotgan asarlar soni ortgani sari ularni tahlil qilish ham dolzarblik kasb etaveradi.

Asosiy qism: Tarjima asarlarni tahlil qilishda uning leksik xususiyatlariga, semantik xususiyatlariga e'tibor qaratdik. Xususan, tarjimonning yutuq va kamchiliklari ilmiy jihatdan dalillandi. Misol uchun, "Vatanim" she'rida quyidagicha misralar mavjud:

Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman¹

Tarjimada:

Jat jurtlarda Alpamisqa

¹ Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – S.10.



HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research

(HSR-ICMAR) 2026

<https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference>



Nóker bolip bararman²

Asliyatda qoʻllanilgan Chambil bu “Alpomish” dostonida qoʻllanilgan joy nomi hisoblanib, “oʻzbek xalq dostonlarida (xususan, «Goʻroʻgʻli» turkumidagi dostonlarda) tilga olinadigan afsonaviy, orzu qilingan farovonlik, tinchlik va baxt makoni hisoblanadi”.³ Tarjimon esa bu soʻzni “jat” soʻzi bilan bergan boʻlib, Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligida “Basqa, bóten”⁴ tarzida izohlangan. Bundan kelib chiqadiki, tarjimon xatolikka yoʻl qoʻygan.

Tarjimon yoʻl qoʻygan xatolik boshqa oʻrinlarda ham mavjud. Jumladan, “Rafiqamga” sheʼrining oxirgi bandida xatolik mavjud:

Oydinim, koʻngilda bir koʻshk bezaylik,
Gulim, yur, dilim, yur, gulzor kezaylik⁵.

Tarjimada:

Aydinim, kewilde bir qosiq bezeyik,
Gulim, jur, janim, jur, gulzar gezeyik⁶.

Asliyatdagi “koʻshk” soʻzi tarjimada “qoʻshiq”qa aylangan. Koʻshk soʻzi “Qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat” tarzida izohlangan.⁷ “Qosiq” soʻzi “tört qatardan ibarat bolip, belgili bir namağa salıp aytıwğa bolatúgın poeziyalıq shıǵarmanıń bir túri” tarzida izohlanadi. Tarjimon talaffuzga yaqin boʻlganligi uchun adashtirib qoʻllagan boʻlishi mumkin va shu xatolik tufayli maʼnoda gʻalizlik yuzaga kelgan.

Tarjimadagi nuqsonlardan yana biri bu sheʼrga misralar hamda band qoʻshishlar hisoblanadi. “Koʻzmunchoq” sheʼri asliyatda besh banddan iborat boʻlib, bandlari asl nusxa kabi oʻgirilgan. Misol uchun:

Mushfiq qushday mushtipar,
Koʻngil siri pinhonsan.
Shoʻring qursin, singilcham,
Oʻz uyingga mehmonsan⁸.
Muńlı qustay mulayım,
Sırıń ishke jıyǵansań.
Sorlı ǵana qarındasım,
Óz úyińde miymansań⁹.

Ammo tarjimon buni olti band qilib oʻgiran. Oʻzidan nima uchundir uchinchi bandni bir band qilib qoʻshgan:

Jawshı keler asıǵa,
Sawda bolar bul aqsham,
Sulıwlıǵıń basıńa
Ǵawǵa bolar bul aqsham¹⁰.

“Vatanim” sheʼrining uchinchi bandida quyidagicha misralar mavjud:

Ming bir yogʻi ochilmagan
Qoʻrigʻimsan, Vatanim¹¹.
Mıń da bir siri ashılmaǵan,

² Bazarbay Seytayev tarjimalari qoʻlyozma nusxasi. – S.3.

³ <https://old.islamonline.uz/index.php/ilm-fan/adabiyot/item/22325-chambil-yurti>

⁴ Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi, II. N.: Qaraqalpaqstan, 2023. – S.335.

⁵ Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – S.253.

⁶ Bazarbay Seytayev tarjimalari qoʻlyozma nusxasi. – S.81.

⁷ Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 2. – S.479.

⁸ Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – S.264.

⁹ Bazarbay Seytayev tarjimalari qoʻlyozma nusxasi. – S.46.

¹⁰ Bazarbay Seytayev tarjimalari qoʻlyozma nusxasi. – S.46.

¹¹ Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – S.10.



HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research

(HSR-ICMAR) 2026

<https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference>



**Meniñ sirli jáhánim,
Qorigımsañ, Watanım¹².**

Asliyatda o‘zi ochilmagan joylari ko‘pligi nazarda tutiladi, tarjimon unga yana misra qo‘shishi, uning sirli ekanligini yana ta’kidlashi, bizningcha, noto‘g‘ri. Sababi mutarjim shaklni ham saqlamog‘i kerak.

“Lolaqizg‘aldoq” she‘rining ko‘pgina joylari qoraqalpoq tili o‘zbek tiliga yaqin til bo‘lganligi uchun so‘zma-so‘z tarjima qilingan bo‘lsa ham, lekin ba‘zi o‘rinlarida asliyatda yo‘q misralar tarjimon tomonidan qo‘shilganligini quyida ko‘rishimiz mumkin:

Bu ajib ishlarni
Dil lavhiga yoz:
Kimga qasr yetmas,
Kimga mol-dunyo,
Menga esa HAVO
Yetmaydi xolos¹³.

Tarjimada:

Bul ájep islerdi
Kókiregiñe jaz:
Kimgé gumbez jetpes,
Kimgé mal-dúnya,
Dártliniñ tabılmas,
Dártine dawa.
Al, mağan jetpeydi,
Bir jutım hawa¹⁴.

Bir qarashda tarjimon misralar sonini ko‘paytirganligi uchun noto‘g‘ri deyish mumkin, ammo qofiyalari mos bo‘lganligini, she‘rning ma‘nosiga yana ham kuchli ma‘no qo‘shganligini inobatga olsak, tarjimon yanglishmagan.

Xulosa: Xulosa tarzda aytadigan bo‘lsak, tarjimondan talab qilinadigan ikki tilni mukammal bilish va mahoratni ishga solish oson ish emas. Shunday bo‘lsa ham, tarjimonlar ishga kirishishdan avval katta mas‘uliyatni yelkasiga yuklashi lozim. Ana shundagina qilgan tarjimalari asliyatga muvofiq tarzda o‘giriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bazarbay Seytayeв tarjimalari qo‘lyozma nusxasi.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019
3. Qaraqalpaq tiliniñ túsindirme sózligi, II. N.: Qaraqalpaqstan, 2023.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2.T.: O‘zbekiston, 2020.
5. <https://old.islamonline.uz/index.php/ilm-fan/adabiyot/item/22325-chambil-yurti>

¹² Bazarbay Seytayeв tarjimalari qo‘lyozma nusxasi. – S.3.

¹³ Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – S.262-263.

¹⁴ Мухаммад Юсуф. Биз бахытлы боламыз. – Нөкис: Билим, 2004. – С.13.